



Tadqiqot **uz**

ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР МАВЗУСИДАГИ КОНФЕРЕНЦИЯ МАТЕРИАЛЛАРИ

2020

- » Хуқуқий тадқиқотлар
- » Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар
- » Тарих сағифаларидағи изланишлар
- » Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни
- » Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни
- » Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар
- » Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар
- » Маданият ва санъат соҳаларини ривожланиши
- » Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши
- » Техника ва технология соҳасидаги инновациялар
- » Физика-математика фанлари ютуқлари
- » Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар
- » Кимё фанлари ютуқлари
- » Биология ва экология соҳасидаги инновациялар
- » Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари
- » Геология-минерология соҳасидаги инновациялар



No22
30 ноябрь

conferences.uz

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 22-КҮП ТАРМОҚЛИ
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ
3-ҚИСМ**

**МАТЕРИАЛЫ РЕСПУБЛИКАНСКОЙ
22-МЕЖДИСЦИПЛИНАРНОЙ ДИСТАНЦИОННОЙ
ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИИ НА ТЕМУ "НАУЧНО-
ПРАКТИЧЕСКИЕ ИССЛЕДОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ"
ЧАСТЬ-3**

**MATERIALS OF THE REPUBLICAN
22-MULTIDISCIPLINARY ONLINE DISTANCE
CONFERENCE ON "SCIENTIFIC AND PRACTICAL
RESEARCH IN UZBEKISTAN"
PART-3**

ТОШКЕНТ-2020



УУК 001 (062)
КБК 72я43

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" [Тошкент; 2020]

"Ўзбекистонда илмий-амалий тадқиқотлар" мавзусидаги республика 22-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 30 ноябрь 2020 йил. - Тошкент: Tadqiqot, 2020. - 23 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн конференция 2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиш ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишиланган.

Ушбу Республика илмий конференцияси таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илфор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳлил қилинган конференцияси.

Масъул мухаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1.Хуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б.,ю.ф.н. Юсувалиева Раҳима (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2.Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна(Фаргона давлат университети)

3.Тарих саҳифаларидағи изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4.Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманганд мухандислик-қурилиш институти)

5.Давлат бошқаруви

PhD Шакирова Шоҳида Юсуповна (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги "Оила" илмий-амалий тадқиқот маркази)

6.Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна(Андижон давлат университети)

7.Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш худудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Раҳматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни

Phd Воҳидова Меҳри Ҳасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна (Навоий вилоят ҳалқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш ҳудудий маркази)

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброҳимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобоҳонов Олтибой Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чарiev Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Мусиқа ва ҳаёт

Доцент Чарiev Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқаюм Раҳимбердиевич (Наманганд мухандислик-курилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманганд мухандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.Ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқович, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Рахмонова Доно Қаҳхоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Доцент Сувонов Боймурод Ўралович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўқтам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

25.География

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулdir.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

ТАРИХ САҲИФАЛАРИДАГИ ИЗЛANIШЛАР

1. Мўминов Азизбек Зиёвиддинович АҲМАД ДОНИШНИНГ ТАРИХЧИ-ОЛИМ СИФАТИДА ШАКЛЛАНИШИДА ТАЪСИР ЭТГАН ШАРТ-ШАРОИТЛАР.....	7
2. Xojimatova Karimaxon BUYUK IPAҚ YO'LIDA IPAҚ MATOLAR SAVDOSI	10
3. Рахматуллаева Н.М. ПОДХОДЫ В ИССЛЕДОВАНИИ МЕЖДУНАРОДНЫХ ОТНОШЕНИЙ: СОВРЕМЕННЫЕ ПРОБЛЕМЫ И ТЕНДЕНЦИИ	11
4. Шарипов Ф.Н., Раззоқов Ш.Р. ШАРҚ АКАДЕМИЯЛАРИНИНГ МАРКАЗИЙ ОСИЁ ИЛМ-ФАН ТАРАҚКИЁТИГА ТАЪСИРИ.....	13
5. Irisboyeva Shaxlo Nurmuhhammadovna O'QUVCHILARGA TARIX FANINI O'QITISHDA ZAMONAVIY METODLAR VA TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH.....	16
6. Otaxonova Zulfiya Odamboyevna KIMYODA SAVOL TANLASH.....	17
7. Abduzohirov Ravshan Hamdamovich, Xudoyberdiyev Rashid 1945-1960 YILLARDA JANUBIY KOREYANING BIRINCHI PRIZDENTI LI SAN MAN DAVRIDA IQTISODIY-SIYOSIY JARAYONLAR VA UNING NATIJALARI.....	21



ТАРИХ САҲИФАЛАРИДАГИ ИЗЛАНИШЛАР

АҲМАД ДОНИШНИНГ ТАРИХЧИ-ОЛИМ СИФАТИДА ШАКЛЛАНИШИДА ТАЪСИР ЭТГАН ШАРТ-ШАРОИТЛАР.

*Мўминов Азизбек Зиёвиддинович
Низомий номидаги ТДПУ
“Тарих ва уни ўқитиши методикаси”
кафедраси ўқитувчиси
azizbek.tuminov83@mail.ru
тел:94 662 78 83*

Аннотация: Ушбу мақолада Бухоро амирлигига манғит сулосаси даврида иқтисодий, ижтимоий, сиёсий ва маданий соҳалари хақида маълумот, Аҳмад Донишнинг фаолияти билан боғлиқ асарлар ва ўша вақт тарихий шароитида илғор сиёсий қарашларини назарий, фалсафий фикр-коидалар орқали асослашга ҳаракат қилган ғоялари ҳақида малумотлар берилган.

Калит сўзлар: Бухоро амирлиги, манғитлар, Аҳмад Дониш, “Наводир ул-вақое” (“Нодир воқеалар”), ”Рисола” асарлари

Инсониятнинг кейинги уч минг йиллик тарихига назар ташланса, жаҳон цивилизацияси бешикларидан бири Турон, Маворунахр, Чигатой улуси, Туркистон деб турли асрларда турфа номлар билан аталган диёримиздан хамма даврларида маърифатли-алома ва мутафаккирлар етишиб чиққан. Бундай шахсларнинг фикрлари давлат ва жамиятни бошкаришда жуда катта ахамиятга эга бўлган. Ана шундай шахслардан бири XIX асрда яшаган маърифатпарвар, тарихчи Аҳмад Дониш хисобланади. Аллома яшаган йиллар Бухоро амирлигига манғит сулоласидан Амир Музффар ва унинг вориси Абдулаҳад ҳукронлиги йиллари эди. Ўрта Осиё тарихчилигига Бухоронинг янги замон даври тарихига бағищланган асарлари билан XIX аср иккинчи ярмида танилган донишманд, шоир, ёзувчи ва олим Аҳмад Дониш катта ўрин эгаллайди. Ўрта Осиё маданияти ривожига катта хисса қўшган адаб ва донишманд Дониш таҳаллусини олган Аҳмад ибн Носир 1827 йилда Бухоро шаҳрида туғилди. Отаси деҳқон бўлиб, Сурғут қишлоғидан (ҳозирги Бухоро вилояти, Вобкент тумани) Бухоро шаҳрига ўқишига келади, ўқишини тамомлагандан кейин Бухородаги масжидлардан бирида муаллимлик (имомлик) қиласди. Отаси Аҳмадни тарбиялашга, ўқитишга алоҳида аҳамият беради. Аҳмад Дониш бошланғич билимни уйида онасидан олади. Ўзбек ва тожик адабиётининг етук вакилларидан бири Садриддин Айний ўз асарларида алломани катта истеъдод соҳиби бўлганлигини, доимо янгиликка интилганлигини асарларида алоҳида таъкидлаб ўтиб шундай ёзади «Аҳмад маҳдум Бухоро мадрасаларида ўтиладиган дарсларга қаноат қилмай араб тилини мукамал ўрганади, математика, фалакиёт, география, тиббиёт, тасвирий санъат, тарих ва фалсафага доир билимларни мустакил равишда эгаллаб, ҳар томонлама билимли кишиси, ўз элининг ва ўз даврининг етук вакили бўлиб етишади» [1]. Аҳмад Дониш Ибн Сино, Умар Хаём, Навоий, Фузулий ва айниқса Бедил асарларини қизиқиб ўқиди.

Алломанинг амирликни турли иқтисодий, ижтимоий, сиёсий ва маданий соҳалари хақида маълумот берувчи «Наводирул вақое» ва «Манғит амирлари тарихи» асарларида Бухоро амирлиги хақида маълумот бериб ўзбек хонликлари орасида ҳудуддий ўрни, ахолиси ва табиий ресурслари жиҳатдан мухим мавқега эга эканлигини айтиб ўтади. Ўша давр ҳақида маълумот берувчи асарларга эътибор берадиган бўлсак: ”Бухоро амирлигининг ҳудуди қарийб 200 минг квадрат километрни ташкил этганлиги, унинг чегаралари жанубда Амударёнинг сўл қирғоғидан бошланиб, Сирдарёгача чўзилиб қозоқ жузлари би-



лан чегарадош бўлганлигини, Шарқда Помир тогларидан Ғарбда Хива хонликлари чегараларигача бўлганлигини, Бухоро ва Самарқанд каби йирик шахарлар жойлашиб, Зарафшон водийси амирликнинг марказий қисми эканлигини асарларида кўришимиз мумкин” [2]. Амирликнинг пойтахти - “Бухорода ўша вактларда энг асосий ерлар вақф ерлари бўлиб 365 мачит, 103 мадраса бор эди. Мактаб ва мадрасаларда диний дарслардан ташқари математика, геометрия ва астрономия фанлари ҳам ўқитилган”[3]. Аҳмад Дониш яшаган ва ижод қилган йиллар Ўрта Осиё, жумладан, Бухоро амирлиги ҳаётида ижтимоий-сиёсий воқеалар тез-тез содир бўлиб турадиган даврга тўғри келади. XIX аср Бухоро амирлигидаги тарихий жараёнларни ўрганишда алломани ёзид қолдирган фикрлари жуда катта аҳамиятга эгадир. Аҳмад Дониш Бухоро амирлигини якка ҳокимлик тизими бўлганлиги, ҳокимиятнинг заифлиги, тахт учун курашлар амирликнинг иқтисодий ҳаётида қолоқлик, турғунлик ҳолларини, аҳолининг турмуши паст даражада бўлишига олиб келганлигини таъкидлайди. Ерга эгалик шакли минг йиллар давомида ўзгармай келганлиги, аҳолига солинадиган солиқ ва жарималар ҳаддан ташқари кўплиги, аҳолининг сотиб олиш қобиляти пастлиги хунармандчиликнинг ривожланишига тўскинилк қилишини ўз асарларида аник ёритиб беради.

Аллома ўзининг ўша вакт тарихий шароитида илғор сиёсий қарашларини назарий, фалсафий фикр-қоидалар орқали асослашга ҳаракат килди. Амирларни тўғри сиёсат олиб боришга, ҳалқ манфаатларини кўзлаб қарорлар чиқаришга ундади. Давлат адолатли бошқаришга, амалдорларни инсофли бўлишига чақирди. Лекин бу сарой амалдорларига ёқмайди. Натижада ундаги хукмрон доираларга нисбатан бўлган танқидий муносабати янада чуқурлашиб кетди. XIX асрнинг 50-йиллари ўрталарида амир Насруллоҳ саройида бош хаттот ва рассом сифатида иш бошлаган аллома 1870 йилда адолатли давлат ҳақидаги тасаввурларига мос келмайдиган хизматни ихтиёрий тарк этади. Алломани бу йўсингдаги фикрларни ўша даврни ўрганган тарихчилиар ҳари хил талқин қилишади, шулардан Бўрибўй Аҳмедовни “Ўзбекистон тарихи манбалари” китобида қуйдаги фикрларни келтиради “Бухоро амирлари унинг чуқур билимларини ҳисобга олиб амирликдан ташқари бошка худудларига ҳар хил лавозимларга тайинлашади. Аҳмад Дониш 70-йиллардан то амир Музаффар вафотига қадар, узоқ Гузор ва Норпай вилоятларида қози бўлиб ишлайди” [4]. Аҳмад Дониш бу вазифада ишлаши унинг Бухоро ижтимоий тузилишида социал-иқтисодий ўзгаришлар зарурлиги ҳақидаги фикрларини янада қатъйлаштириди. Аллома “Наводир ул-вақое”(“Нодир воқеалар”) асрида мавжуд тузумга ўз муносабатини билдиради ва Бухоро амирлигига давлат бошқаруви ислоҳотини таклиф этади. Аҳмад Дониш амир Дониёлдан то Абдулаҳатгача бўлган амирларни (Шоҳмуроддан ташқари) барча Бухоро амирларини давлат ва унинг фуқоролари фаровонлиги йўлида эмас, балки факат ўз шахсий манфаати йўлида қайтурган нўноқ хукмдорлар сифатида тавсифлайди. Бундай ишалар айниқса Амир Музаффар (1860-1885) хукмронлик қилган йиллари ҳаддан ташқари кучайиб кетади. Тарихчи Азамат Зиё бу ҳолатни ўз асарида шундай таърифлайди: ”Амир Музаффар (1860-1885) хукмронлик қилган йиллари мангитлар сулоласи ва улар хукми остида яшаган аҳоли учун таҳликали давр бўлганлигидан, ҳалқ оғир аҳволда яшаган” [5]. Амир Музаффар ҳақида тарихчи яна шундай маълумотлар келтиради, “Амир Музаффар доимо ўз манфаатини кўзлаб иш юритган. Унинг фаолияти отаси замонида мансабда бўлган амалдорларни бўшатиш ва мол-мулкларини мусодара қилиш, амир Насрулло томонидан ўз вақтида Карманага сургун қилинган кишиларни яна пойтахтга қайtarib юқори лавозимларга тайинлашдан бошлаган”. Бундай вазият амирликда ҳамма соҳаларда пораҳўликни авж олишига сабаб бўлди. Бухоро учун ўта муҳим ҳисобланган суғориш соҳасида ўғирлик кучайиб кетади. Шаҳарга сув келишидан анча олдин мироблар ҳақ ола бошлар, у ҳатто ариқ тозалаганлардан ҳам олинарди. Дехқонлардан одам турмайдиган ерлар учун ҳам солиқ олинар, тўламаганларни қамоқҳона хавфи кутарди. Миршаблар ҳақида гап кетганда, Аҳмад Дониш сўзича, ”..улар давлатдан маош олмаган. Уларга ноҳақ аҳоли тўловлари ҳисобидан маош берилган, табиийки, шу боис улар фуқоро манфаатларини муҳофоза қилиш ўрнига, ҳатто босқинчилар билан келишиб, қароқчилик ҳам қиларди” [6]. Албатта, бу чирик тизимнинг энг куйи катори эди. Олий қатор эса саройда бўлиб, давлат лавозимига тайинлаш пора шаклида, улкан тухфа ёки даъвогар лавозимига гўзал ёшгина қиз тортиғи билан тайинланган. Амир Музаффар даврида амалдорларнинг очқўзлиги, ўз ҳатта-ҳаракатларини оқлаш учун диний қонун-қоидалардан фойдаланиши, схоластик ҳусусият



касб этувчи таълимнинг аянчли аҳволи, давлат мустақиллигини саклашга йўналтирилган аниқ ташқи иқтисодий ҳаракатларнинг йўқлиги, миңтақада янги ерларнинг босиб олишига йўналтирилган анча тор интилашлар, ҳалқнинг қашшоқ аҳволи Бухоро амирлигининг умумий манзарасини ташкил этарди. Бироқ, Аҳмад Дониш шунчаки танқидчи эмас эди, Ватаннинг ғариб аҳволини англашдек оғир юк унинг елкасига тушганди. У ривожланган мамлакатлар ҳақида яхлит тасаввурга эга эди, шунинг учун ҳам Ватанини тараққиёт йўлига олиб кирадиган йўллар борлигига ва мутараққий ишларда қобилятли инсонлар борлигига ишонган.

У ислоҳатларни муҳим ҳаётий соҳа-суғорищдан бошлишни таклиф этади. "Рисола" аса-рида Келиф ва Карки туманида Амударёдан суғориш канали ўтказиш лойиҳасини келтиради. Зарафшоннинг сувлари Рус-Бухоро урушидан сўнг чор ҳокимияти ихтиёрида қолгач, хонликда сув танқислиги, қурғоқчилик юзага келди. Солик олиш эса бундан камаймади, аҳоли қишлоқлардан Казали ва руслар назорати остидаги ерларга кетиб қолди. Бу ҳол қишлоқда социал ўзгаришларга олиб келди. Донишнинг ёзишича, ахолининг чорак қисми бу таназзулукни яхши англар эди ва бу тартиблардан норози эди. Бироқ Аҳмад Дониш ўзининг маърифатпарварлик қарашларини асослаш йўлида қатъий ва мағрур олга қадам ташлайди. Бу ҳақда Иброҳим Мўминов шундай фикрларни билдирган, "Аҳмад Дониш ўз ватанининг даҳшатли аҳволининг сабабини бухоролик ўз замондошларига қараганда чукурроқ англади".

Аҳмад Дониш бирдан-бир истак, бирдан-бир фикр билан яшади ва ижод қилди, у даҳшатли қолоқлик ва биқиқлик ҳолатидан қутилиш учун ўз ватанига, ўз ҳалқига ёрдам беришга ҳаракат қилди.

Хулоса ўрнида шуни айтиш мумкинки аллома ўз нуқтаи назарича, ўз ватани ва ҳалқини қолоқликдан чиқариш йўлини дастлаб қўйидаги ҳаётий муҳим тадбирларни амалга оширишда деб билди: мамлакат мустақилгини таъминлайдиган адолатли ҳокимият ўрнатиш, ирригацияни кенгайтириш асосида дехқончиликни ривожлантириш, хунармандчилик ишларига ҳар томонлама ёрдам бериш, фан ютуқларига эришиш учун ҳаракат қилиш, олимлар, шифокорлар тайёрлаш кераклигини айтиб ўтади. А.Дониш ҳамма кишиларнинг маърифатли ва давлатли бўлишини истади. Аллома илмий тафаккурнинг мамлакат манфаатлари учун, унинг ривожланиши учун, ҳалқнинг фаровонлиги учун хизмат қилиши кераклигини чин қалбидан истар эди. Ўз ватанининг содик фазанди Аҳмад Дониш ўз фуқоросининг, тинч.осойишта ҳаётини бузган Бухоро амирлигини қаттиқ қоралади. Ватан-парварлик туйғуси билан яшаган аллома ухлаб ётган хукмон табақа вакилларига замон билан ҳамнафас бўлиб ривожланаётган мамлакатлар билан алоқа қилишга, айниқса фани ва техникаси ривожланган Европа давлатлари яқинлашишга даъват этади. Унинг фикрича шу йўл билан мамлакатни қолоқликдан қутқариш ва тараққий эттиришнинг бирдан-bir тўғри йўл эканлигини айтади. Аҳмад Дониш бунинг зарурлигига қатъий ишонч ҳосил қиласди.

Фойдаланилган адабиётлар рўйҳати:

1. С.Айний, Намунаҳои адабиёти тоҷик, М., 1926.
2. Ўзбекистоннинг янги тарихи I-китоб Туркистон Чор Россияси мустамлакачилиги даврида. Тошкент, »Шарқ«, 2000. 44-бет
3. Епифанова Л.М. Рукописные источники по истории Средней Азии. Период присоединения ее к России. Бухара. Тошкент. »Наука«, 1965, стр. 14.
4. Бўрибой Аҳмедов «Ўзбекистон тарихи манбалари». Тошкент, «Ўқитувчи», 2001. 241-бет
5. Азамат Зиё. Ўзбек давлатчилиги тарихи. Т., »Шарқ«, 2000, 283-284 бетлар.
6. Жадидчилик: ислоҳоти, янгиланиш, мустақиллик ва тараққиёт учун кураш. Тошкент. «Университет», 1999, 85-бет.



BUYUK IPAQ YO'LIDA IPAQ MATOLAR SAVDOSI

Xojimatova Karimaxon

Andijon viloyati Andijon tumani 5-sonli

umumiyo'rta ta'lim maktabining Tarix fani o'qituvchisi

Telefon: +998 90 269 69 01

Annotatsiya: Ushbu ilmiy maqolada Buyuk ipak yo'lida ipak matolar savdosi haqida qisqacha ilmiy yondashishga va ilmiy nuqtai nazaridan ma'lumot berishga harakat qilingan.

Kalit so'zlar: Ipak, Xitoy, ayol, parcha, Buyuk ipak yo'li, Dasya, Ptolemey.

Qadim zamonlarda Xitoydan Turkistonga, so'ngra Yevropaga olib ketilgan mollar ichida ipak matolar va boshqa ipak mahsulotlari asosiy o'rinni egallagan edi. Ko'p hollarda ipak matolari xalqaro savdo aloqalarda sotiladigan va sotib olinadigan mollarning bahosini belgilovchi o'Ichov yoki pul o'rnida ham ishlatilgan. Miloddan avvalgi davrlarda va milodning boshlarida Xitoyning g'arbiy tomonida yashovchi xalqlar poliz ekinlari mahsuloti, meva va quritilgan meva kabilarni ham ipak matoga ayirboshlashgan. Xitoya ayol qullarni olib borib sotishda ham uning narxi ipak mato bilan belgilangan. Chunonchi, Taklamakon cho'lining janubi-sharqiy tomonida joylashgan qadimgi Niya shahri xarobasidan topilgan bir hujjatda "Sujidening xabar qilishiga ko'ra, Sujisaka ayolining narxi 41 o'ram ipak matodan iborat. Ushbu tamg'alangan xat qo'lingga tekkandan keyin, shaxsan o'zing u ayolning haqiqatdan sotib olingan yohud olinmaganligini surishtirib ko'r..... Hamma narsa qonuniy bo'lish kerak", deb yozilgan. Ushbu hujjat mazmunidan qadim zamonlarda bir ayol qulning narxi Xitoya 41 parcha (bo'lak – qadimgi o'Ichovda 546,53 metr) ipak matoga teng bo'lganligi ma'lum bo'ladi.

Xan sulolasi tarixida "G'arbiy mamlakatlarga borgan elchi yoki savdogar ipak matolarni iloji boricha ko'p olib borishi kerak. Aks holda "yeishga ovqat topolmasligi mumkin", deb yozilgan misralarni uchratish mumkin. Ushbu ma'lumot ham Buyuk ipak yo'lidi xalqaro savdo aloqalarda ipak matolari muhim ahamiyat kasb etganligini ko'rsatadi.

"Tarixiy xotiralar" kitobida "Xitoya G'arbdan va Shimoldan kelgan elchilar ning keti uzilmaydi. Markaziy Osiyodan kelganlar ichida Ansi (Arshak, Parfiya) davlatidan kelganlar boshqa tilda so'zlashsa ham savdo qilishni yahshi bilishgan. Dasya (Qadimgi Rim) davlati Davan (Farg'ona) davlatining g'arbida joylashgan bo'lsa ham, u yerdan kelganlar ham savdolashishni yahshi bilishgan" deb adabiyotlarda keltirilgan. Buyuk geograf Ptolemeyning ma'lumotiga ko'ra, Iskandarning savdogarları Baqtriya va torim vahasi orqali Xitoya borib ipak matolarini olib kelganlar.

Miloddan avvalgi Rim davlatida boylarda, ayniqsa ayollar orasida ipak matodan kiyim kiyish shu darajada odat tusiga kirganki, rimpliklar hind savdogarlaridan yiliga o'rta hisobda 5500 "sestersiy" (sestertius) oltin tanga hajmida turli xil gazlama sotib olishgan. XIX asrdagi narx bilan hisoblaganda, 5500 "sestersiy" 1 mlrd. Frank oltin tangaga teng bo'lgan.

Keltirilgan ma'lumotlardan ko'rinish turibdiki, qadim zamonlarda ipak mahsuloti Xitoyning asosiy eksport mahsuloti bo'libgina qolmasdan, balki o'zga xalqlardan sotib olinadigan mollar uchun beriladigan to'lov vositasi ham edi.

Foydalilanigan adabiyotlar ro'yxati.

1. Xo'jayev A. Buyuk ipak yo'li: Munosabatlar va taqdirlar. – T.: O'zbekiston milliy ensiklopediyasi, 2007. – 280 b.
2. Abduxaliq Abdurasul o'g'li. Buyuk ipak yo'li // "Muloqat", № 7, 1994.
3. Sima Chyan. Tarixiy xotiralar. Urumchi, 1989.
4. Xo'jayev A. Buyuk ipak yo'li: Munosabatlar va taqdirlar.// <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/yangi-kitoblar/ablat-xo-jayev-buyuk-ipak-yo-li>
5. Xo'jayev A. Buyuk ipak yo'li: Munosabatlar va taqdirlar.// <https://n.ziyouz.com/kutubxona/barcha-kitoblar?start=18>



ПОДХОДЫ В ИССЛЕДОВАНИИ МЕЖДУНАРОДНЫХ ОТНОШЕНИЙ: СОВРЕМЕННЫЕ ПРОБЛЕМЫ И ТЕНДЕНЦИИ

*Рахматуллаева Н.М.,
докторант (PhD)
Университет мировой
экономики и дипломатии
телефон: +998(93) 527 94 88
NRaxmatullaeva@iwed.uz*

Аннотация: В статье делается акцент на недостаточную эффективность подходов (формационного, цивилизационного) в исследовании международных отношений и необходимость применения комбинированного подхода с использованием знаний и подходов из области регионоведения, культурологии, антропологии и других смежных дисциплин.

Ключевые слова: формационный подход, цивилизационный подход, локальная история, региональная история

В настоящее время международно-политические науки в целом находятся на стадии поиска и осмыслиения новых парадигм, которые смогли бы объяснить исторические корни, природу происходящего и перспективы развития мирового сообщества. При этом обращение к широкому спектру смежных и вспомогательных дисциплин, безусловно имеет как теоретико-методологическое, так и научно-практическое значение.

С самого начала своего возникновения и развития международно-политические науки при изучении, исследовании и описании международной среды опирались исключительно на государство и взаимодействие государств на международной арене. Другими словами, в изучении международных отношений преобладал формационный подход, что наиболее ярко выражалось в противостоянии капитализма и коммунизма по всему миру в период холодной войны.

Так, если марксизм рассматривает исторический прогресс как всеобщее движение человеческого общества к коммунизму, то либеральная парадигма утверждает существование единственного возможного прогрессивного пути развития – от традиционного общества к частнособственному, капиталистическому. Все общества рассматриваются при этом как находящиеся на разных ступенях движения к единому идеалу – демократии западного типа, которая считается единственным приемлемым, а потому и универсальным, и к либеральной форме капитализма. Данное видение обусловило появление на свет таких работ, как труд Ф.Фукуямы «Конец истории и последний человек». В 1990-х годах в условиях глубокого кризиса и распада СССР он пришел к выводу о том, что победа по всему миру «идей либеральной демократии западного образца свидетельствует о конечной точке социокультурной эволюции человечества, что, конечно, вовсе не означает конца событийной истории, но говорит о завершении эпохи идеологических противостояний, революций и войн»¹.

Если распад СССР послужил первым сигналом не исключительности формационного подхода в международных отношениях, то дальнейшие события, связанные с завершением «однополярного момента»² США, еще раз подтвердили несостоятельность ограниченного подхода в объяснении природы международных отношений. Дело в том, что без должного внимания оставались многие существенные стороны жизни общества, позволяющие составить более целостную картину взаимоотношений между теми или иными государствами. Вне поля зрения оказывались специфика материальной и духовной культуры, различия социальной организации тех или иных народов, исторические особенности развития их политической культуры, влияние этнических процессов на развитие обществ в исторической ретроспективе, роль и значение традиций в жизни народов, моральные и нравственные ценности, присущие различным и очень разнообразным культурам. Всем этим про-

¹ Концепции современного востоковедения / Коллектив авторов. – СПб.: КАРО, 2013. – с.177.

² См. Krauthammer, C., 1990. The Unipolar Moment. [online] Foreign Affairs. Available at: <https://www.foreignaffairs.com/articles/1990-01-01/unipolar-moment>. [Accessed 15 May 2020].



цессам и явлениям отводилась второстепенная роль в международно-политических науках – подчиненная первоочередности развития государства и его взаимоотношений с другими государственными образованиями в описании международных реалий.

Еще в момент появления первых работ Ф.Фукуямы о «конце истории» его критики указывали на то, что он практически не учитывал специфику развития таких культурно-исторических регионов, как исламский мир или Китай. В 1996 году выходит в свет книга С.Хантингтона «Столкновение цивилизаций и преобразование мирового порядка», которая предложила обратить внимание на цивилизационный ареал тех или иных государств и положила начало дискуссиям о подходах в исследовании международных отношений. В свете современных дискуссий Ф.Фукуяма в 2000-х годах пересмотрел свои взгляды с учетом цивилизационного подхода¹.

Следует отметить, что применение цивилизационного подхода в международно-политических науках не ново. Он был популярен в мировой науке полвека назад, но сегодня находится в кризисном состоянии и поэтому в чистом виде не может дать объяснение современным международным реалиям. Во-первых, выделение рамок локальных цивилизаций является достаточно условным, так как отсутствуют общие основания, которые обеспечивали бы возможность определения локальных цивилизаций именно как цивилизаций. Во-вторых, в современной науке до сих пор отсутствует общепринятое определение понятий цивилизация, цивилизационный подход, культура, локальные культуры и т.д. В-третьих, историческое ограничение локальных цивилизаций, акцентирование внимания на их специфике в отрыве от общих характеристик социально-политических процессов не объясняет не только общецивилизованные феномены и собственно цивилизацию в целом, но и сами локальные цивилизации, в частности то общее, что одновременно или с небольшим разрывом во времени возникало в их развитии.

В свете эволюции научного знания в современную эпоху международно-политические науки приблизились к важному рубежу смены классической парадигмы изучения государств, социумов и культур. Так, группа ученых полагает, что локальная история укрепляет свои позиции на основе сочетания микро- и макроподходов и признает чрезвычайную значимость региональной истории. Возрастающее значение приобретают надгосударственные макроисторические процессы субрегиональной, региональной и общемировой интеграции в политической, экономической, социальной и культурно-цивилизационной сферах. Все больше исследователей ратуют за новую комбинированную исследовательскую парадигму в сфере международно-политических наук, в которой идеи, сформированные в рамках государственно-центристской науки, не будут утрачены. Важными компонентами новой исследовательской парадигмы выступают и такие понятия как «регионализация» и «цивилизация».

Комбинированная модель научного анализа современных международных отношений позволит исследователям увидеть целостную картину изучаемого явления и избежать односторонних, ангажированных исследований. Справедливости ради стоит отметить, что дифференцированные подходы уже применялись многими учеными в рамках междисциплинарных исследований и были достигнуты существенные результаты. Однако, в целом, в международно-политических науках сохраняется тенденция, когда исследователи и эксперты в своих исследованиях не задействуют в полной мере необходимые для целостного понимания и описания той или иной международной проблемы знания и подходы из области вспомогательных дисциплин как регионоведение, культурология, антропология, этнография и т.д.

Использованные источники:

1. Концепции современного востоковедения / Коллектив авторов. – СПб.: КАРО, 2013. – 464с.
2. Krauthammer, C., 1990. *The Unipolar Moment*. [online] Foreign Affairs. Available at: <https://www.foreignaffairs.com/articles/1990-01-01/unipolar-moment>. [Accessed 15 May 2020].
3. Типы государства. https://ru.wikipedia.org/wiki/Типы_государства [дата обращения: 15.05.2020].

¹ Типы государства. https://ru.wikipedia.org/wiki/Типы_государства [дата обращения: 15.05.2020].



ШАРҚ АКАДЕМИЯЛАРИНИНГ МАРКАЗИЙ ОСИЁ ИЛМ-ФАН ТАРАҚҚИЁТИГА ТАЪСИРИ

Шарипов Ф.Н.
Қарши давлат университети ўқитувчиси
Телеграм 90-313-76-25
Раззоқов Ш.Р.
Қарши давлат университети талабаси

Аннотация: Жаҳон цивилизацияси марказларидан бири бўлган Шарқда илм-фан ривожланиши анча қадимги даврга бориб тақалади ва ўрта асрларда у ўзининг юкори чўққисига кўтарилди. Ўрта асрларда ташкил топган “Байт-ул-Ҳикма” (“Донишмандлар уйи”) ва Хоразм Маъмун академияси ҳамда Самарқандда Мирзо Улуғбек томонидан асос солинган биринчи астрономия академияларининг ташкил топиши ва уларнинг Марказий Осиё илм-фани равнақига кўшган хиссаси ушбу мақолада баён қилинган.

Калит сўзлар: Академия, Байтул-ҳикма, Донишмандлар уйи, расадхона, Дорул ҳикма ва маориф, Хоразм Маъмун академияси, Трансоксиана, Улуғбекнинг Самарқанд академияси, фалакиётшунослик, Нақши жаҳон, секстант, мажастий, Зижни жадиди Кўрагоний.

“Академия” атамаси афсонавий қаҳрамон “Академа” номидан олинган. Унинг номи билан Афина яқинидаги бир шаҳар ҳам Академия деб аталган. Академия - баъзи илмий ва ўқув ташкилотларининг номидир. Фан тарихида академиялар жуда кўплаб тузилган.

Халифа Ал-Маъмун (813-833) даврида Бағдод шаҳри Шарқнинг илм-маърифат марказига айланиши натижасида IX асрда бу шаҳарда “Байт-ул-Ҳикма” (“Донишмандлар уйи”)- Шарқнинг фанлар академияси ташкил этилди. Бу академияда жуда кўп йўналишлар бўйича илмий изланиш ишлари олиб борилган. Манбаларнинг гувоҳлик беришича, бу академия қошида бой кутубхона, яхшигина жиҳозланган расадхона ҳам бўлган. Расадхонада сайёralар ва юлдузлар кузатилган. Бу академия 200 йил фаолият кўрсатган. Бу академияда Мусо ал-Хоразмий, Аҳмад ал-Фарғоний каби Мовароуннаҳрлик олимлар ижод қилиб, ўрта аср илму фанига бебаҳо хисса кўшганлар.

Худди шунга монанд X аср охири XI аср бошларида Хоразмда ҳам подшо Маъмун ибн Маъмун (995-997) ва унинг авлодлари даврида 1004-йилда “Донишмандлар уйи” ташкил этилди. Урганчда ташкил этилган бу “Байт-ул-Ҳикма”- “Маъмун академияси” (Хоразм академияси) деб номланади.

Ушбу илм маскани Марказий Осиёдаги илк академия ҳисобланади. Академиянинг “Маъмун” дейилишининг сабаби Маъмуний хоразмшоҳлар даврида (997-1017 йиллар) уларнинг ҳомийлигида ташкил қилиниб, у “Дорул ҳикма ва маориф” (Билимдонлик ва маориф уйи) деб аталган. {1:75}.

Хоразм Маъмун академиясида илм-фannинг барча соҳалари бўйича тадқиқот ва излашилар олиб борилган, жуда кўп манбалар тўпланган, таржимонлик ишлари бажарилган ва ҳинд, араб, юнон олимларининг ишлари ўрганилган. Бу ерда машхур кимёгарлар, табиатшунослар, тиббиётчилар, математиклар, астрономлар, муҳандислар, мантиқшунослар, файласуфлар, тарихчилар, географлар илм-фannинг деярли барча соҳалари бўйича ижод қилдилар. Айниқса, Абу Наср Мансур ибн Али ибн Ироқ ал-Жаъди Абулхайр Ҳаммар, Абу Ахл Исо ибн Яхё ал-Масихи ал-Журжоний, Абу Райҳон Муҳаммад ибн Аҳмад ал-Беруний, Абу Али ибн Сино, Абу Аҳмад ибн Муҳаммад ибн Муҳаммад ас-Сахри, Абу Абдуллоҳ Муҳаммад ибн Ҳамид ал-Хоразмий, Аҳмад Фарғоний кабиларнинг хизмати катта бўлди. {2:381}.

Дарҳакиқат, ўзбек халқи жуда кўхна ва бой миллий-маданий меросга эга эканлигига Хоразм Маъмун академияси гувоҳлик беради. Биринчи Президентимиз И.А.Каримовнинг 1997 йил 11 ноябрдаги “Хоразм Маъмун академиясини қайтадан ташкил этиш тўғрисида”ги фармони ва 2006 йил кузида Республикамизда “Хоразм Маъмун академиясининг” 1000 йиллигини нишонланиши ҳам мамлакатимизда амалга оширилаётган миллий-маданий меросни тиклаш йўлидаги улкан саъй-ҳаракатdir.

XV асрда Самарқандда ташкил қилинган Улуғбек академиясини тан олган ва дунёга таратган киши бу француз ёзувчиси, файласуфи ва тарихчиси Вольтер (1694-1778) дир.



А.Абдурахмонов ўзининг “Улуғбек академияси” китобида Вольтернинг қуидаги сўзларини келтиради: “Трансоксианада унинг (яъни Амир Темурнинг) ўрнига тахтга чиқкан машҳур Улуғбек Самарқандда биринчи академияга асос солди”. {3:13}.

Чиндан ҳам Улуғбек томонидан қурдирилган расадхона ўз даврининг академияси бўлган. {4:441}.

Фан тарихига бу илмий марказ “Улуғбекнинг Самарқанд академияси” ва ”Улуғбекнинг Самарқанд астрономия мактаби” номлари билан кирди. Биринчи номни француз файласуфи ва ёзувчиси Вольтер берган бўлса, иккинчи номни академик Қори Ниёзий берган.

Улуғбек 1424-1428 йилларда Самарқандда ўз атрофида тўпланган олимларнинг бевосита иштироки билан шаҳар яқинидаги Обираҳмат анҳори бўйида расадхона қурдирди. Доира шаклида бино қилинган бу бинонинг сирти кошин ва сирли парчинлар билан қопланган. Бинонинг ички саҳни секстант (осмон ёритгичларининг баландлигини белгилаш учун мўлжалланган кўзгу қайтаргичли асбоб) ва коридорлар билан уч қисмга ажратилган. Расадхона жойлашган бу мавзе маҳаллий аҳоли ўртасида “Нақши жаҳон” деган ном билан шуҳрат қозонган. {5:117}.

Ғиёсиддин Жамшид бошчилигида расадхонанинг асосий ўлчов асбоб усқунаси улкан секстант ўрнатилган. Самарқанд секстанти ўша даврда Шарқда машҳур бўлган секстантларнинг энг каттаси ҳисобланган. Али Кушчи унинг баландлигига (қарийб 50 метр) қиёс қилган.

Шу билан бирга Улуғбек расадхона қошида замонасининг бой кутубхонасини ҳам ташкил этди. Бу кутубхонада фаннинг деярли барча соҳаларига тегишли қарийб ўн беш минг жилд китоб сақланган.

Улуғбек академиясида 1471 йилда дунёниг турли мамлакатларидан келган олимлар сони 100 дан ошиб кетади. Улар орасида адиллар, муаррихлар, хаттотлар, мусаввирлар, географлар бор эди. Ҳусусан фалакиёт ва математика соҳалари олимлари шарафлироқ ва обрўлироқ ҳисобланганлар.

Расадхонада Улуғбек билан бирга машҳур математик ва астрономлардан замондошлари ўртасида “Афлотуни замон” деб ном олган Қозизода Румий, Ғиёсуддин Жамшид Коший, “ўз даврининг Птоломей” номи билан шуҳрат қозонган Али Қушчи ва кўпгина бошқа олимлар илмий кузатишлар ва тадқиқотлар олиб боргандар.

Ўша давр тарихчиси Давлатшоҳ Самарқандий “Тазкирот уш-шуаро” асарида “Мирзо Улуғбек ҳандаса (геометрия) илмида мажастийкушо эрди” деб таъкидлайди {6:10}. (Мажастий - Птоломейнинг (II аср) “Алмагест” асарининг арабча номи).

Улуғбек қадимги Юнон олимларидан Платон (Афлотун), Аристотел (Арасту), Гиппарх (Иббархус) ва Птоломей (Батлимус), Шарқ олимларидан Форобий, Хоразмий, Беруний, Ибн Сино ва Носириддин Тусий илмий-меросидаги астрономик тушунчалар билан таниш эди. {7:10}.

У аниқ фанлардан маъruzалар ўқиган, илмий баҳслар уюштирган, астрономик кузатишлар олиб борган, астрономия, математика ва тарихга оид асарлар ёзган. {4:48}.

Улуғбек илмий академияси мусулмон Шарки маданияти ва фани тарихида ниҳоятда муҳим аҳамият касб этди. Унинг раҳбарлигида шаклланган риёзиёт ва фалакиёт мактаби фан тарихида алоҳида нуфузга эга бўлди.

Расадхонада Улуғбекнинг бевосита раҳбарлигида ўтказилган ишлар унинг математика, геометрия ва фалакиётшунослик соҳасида чуқур билимлар соҳиби эканлигидан гувоҳлик берар ҳамда бир қанча амалий вазифалар ечими учун катта аҳамият касб зтарди.

Улуғбекнинг шоҳ асари “Зижи жадиди Кўрагоний” (Кўрагонийнинг янги астрономик жадвали) номли китоби ўрта асрлар астрономия фанининг ютуғи эди.

XV асрда Мовароуннахрнинг пойтахти Самарқандда илмий тадқиқотлар олиб борган машҳур олимларнинг ижодий фаолияти, астрономия ва математика фанлари соҳасида қилган кашфиётлари, яратган нодир асарлари билан илм-фан тараққиётига қўшган ҳиссаларининг салмоғига қараб, Улуғбекнинг астрономия мактабини ўз даврининг академияси дейиш мумкин.



Фойдаланилган адабиётлар

1. Мухаммаджонов А. Ўзбекистон тарихи. – Тошкент: Шарқ, 2013. – 156 б.
2. Мустақиллик изоҳли илмий-оммабоп луғат.- Тошкент: Шарқ, 2006. – 527 б.
3. Абдураҳмонов А. Улуғбек академияси. – Тошкент: Қомуслар Бош таҳририяти, 1993. – 26 б.
4. Шамсутдинов Р., Каримов Ш. Ватан тарихи. Биринчи китоб- Тошкент: Шарқ, 2010 . – 511 б.
5. Мухаммаджонов А. Темур ва темурийлар салтанати.- Тошкент: Қомуслар Бош таҳририяти, 1994. -157 б.
6. Амир Темур ва Улуғбек замондошлари хотирасида. – Тошкент: Ўқитувчи, 1996.-310 б.
7. Ахмедов А. Улуғбек. – Тошкент: 1991.- 49 б.



O'QUVCHILARGA TARIX FANINI O'QITISHDA ZAMONAVIY METODLAR VA TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISH

*Irisboyeva Shaxlo Nurmuhhammadovna
Namangan shahar, Boburshox ko'cha 11-maktab
tarix fani o'qituvchisi*

Annotatsiya: ushbu maqolada maktab yoshidagi bolalarga tarix fanini o'qitish va ularni fanga qiziqtirish, zamonaviy metod va texnologiyalardan foydalanish to`g`risida so`z boradi.

Kalit so`zlar: tarix, o`tmish zarvaraqlari, tarixiy atamalar, yodda qoldirish usullari, kelajak va tarixni bog`lash, hozir va tarix.

Tarixsiz kelajak yo`q, nafaqat kelajak balki hozir ham bo`lmasligi mumkin edi. Har bir qilgan xatoyimizdan to`g`ri xulosa chiqarganimiz kabi, tarixdan ham ma'lum darajada xulosa chiqarish va kamchiliklarni to`g`irlash dolzarb hisoblanadi. Tarixning qatlarida qolgan yangiliklar juda ko`p. O`sha davrda kashf etilgan-u, lekin ommalashtirilmagan bugun esa rivojlanish cho`qqisiga chiqayotgan kashfiyotlar ham yo`q emas.

Shunday ekan farzandlarimizning barkamol va komil inson bo`lib yetishishida ushbu fanning o`rni katta. Maktab davrlaridan tarix fanini chuqur o`rgangan bolalar kelajakda hech ham qiyinchilik va to`sqliqlarga uchrashmaydi. Tarix dalil va faktlardan tashqari, o`quvchilarning tasavvur dunyosini kengayishiga, aqliy faoliyatining yaxshi rivojlanishiga as qotadi.

Demak ushbu fanni o'qitish jarayonida nimalarga ahamiyat qaratish haqida so`z yuritsak. Fanni o'qitishda birinchi navbatda, o`quvchilarning eslab qolish qobiliyatini rivojlantiradigan o`yinlardan foydalanish joiz. Sababi tarixning assosi qismi davrlashtirishga asoslanadi. Qadimgi dunyo tarixini o'qitish jarayonida esa turli mashqlardan foydalanish mumkin:

1. Yangi mavzuni tushuntirish;

ushbu jarayonda o`quvchilarning tasavvur dunyosiga ta'sir qila olish kerak. O'qituvchi mavzuni shunchaki tushuntirishi emas balki hikoya qilishga asoslanishi yaxshi natija beradi. O`tmishdagi bir voqeani bugungi voqeaga bog`lab o`tish esda qolishga yordam beradi. Masalan Rim davlat bo`lgandan keyin undagi boshqaruva bizning davlatimizning boshqaruvidan nimesi bilan farq qilishini tushuntirib ketish kerak. Bu zerikarlilikdan olib qochishga yordam bera oladi. Eng ahamiyatlisi bolalarda ushbu jarayon siyosatning o`rganilishiga ham yordam bera oladi.

2. Yangi mavzuni takrorlash;

Ushbu jarayonda o`qituvchi sinfni ikki guruhgaga bo`ladi va o`tgani mavzusi yuzasidan savollarni ikkita guruhgaga ketma-ket beradi. Guruhlar esa har bir berilgan javoblariga ballarni qo`lga kiritib beradi. Oxirida yutgan guruh aniqlanib shu guruh a`zolariga baho qo`yiladi.

3. O`tilgan mavzu yuzasidan;

O`tilgan mavzuni yillar o`yini orqali takrorlash mumkin:

O`qituvchi 3 ta o`quvchini doska yoniga chaqiradi. Doskani uchga bo`lib har biriga qachon, qayer, nima bo`lgan, kimni davrida qilib jadval tashkil qilinadi. Uchta o`quvchi ushbu jadvalni to`ldirishi talab etiladi. Shunda qaysi o`quvchini esida ko`p ma'lumot saqlanib qolganini bilib olish mumkin, shu bilan birga, qolgan o`quvchilar ham mavzuni qayta takrorlagan bo`lishadi.

Yuqoridagi tartib tarix darsini samarali tashkil etishning bir ko`rinishi. Ushbu jarayonga turli materiallar yordamida yana ham o`zgartirish kiritish mumkin. Asosiysi, tarix fanini bolalarga to`g`ri va oddiy qilib tushuntirib berish.

Foydalilanigan adabiyotlar ro`yxati:

1. Umuta'lim maktablari tarix fani darsliklari



KIMYODA SAVOL TANLASH

Otaxonova Zulfiya Odamboyevna
Toshkent shahar Shayhontohur tuman
186-maktabning kimyo fani o'qituvchisi
Telefon:+998(99) 8977265 f.kurbanbaev@norma.uz

Annotatsiya: Ushbu maqolada savol tanlash orqali o'quvchilarda fanga oid bilimlarining shakllantirish jihatlari aytib o'tilgan. Tanlangan savollarni qo'llash orqali o'quvchilarning jamoada ishslash, mustaqil izlanish, erkin fikrlash, muammoli vaziyatlarning yechimini topa olish hamda maqsadli foydalanish kabi bilimlarini rivojlantirish yo'llari ko'rsatilgan..

Kalit so'zlar: Har sohadan bir shingil, tarmoq, sxema usuli, metod, interfaol, savol , maishiy, astronomiya, biologiya, geografiya.



Ta'lif jarayonining uzluksizligini ta'minlash, o'quv dasturlarini takomillashtirish zarur.

Sh.M. Mirziyoyev

Kimyoda savol tanlash. Zamoniaviy ta'lif tizimining barpo etilishi, o'quv jarayoniga axborot texnologiyalari yutuqlarini joriy qilish bilan chambarchas bog'liq. Asrimizga axborot texnologiyalarning kirib kelishi o'qituvchidan o'qitishning yangi shakl va vositalarini, inovatsion texnologiyalardan foydalanish yo'llarini yaratish usullarini, o'z kasbini ustasi, zamon bilan ham-nafas ish uslubiga ega bo'lishni, yangi o'qitish metodlaridan xabardor, o'z ustida doimo ishslashni talab etmoqda.

Kimyo fani qiyin fanlardan biri ekanligini xammamiz yaxshi bilamiz. O'quvchi fanni o'zlashtirishi va bu fanni mushoxada qilishda qiynaladi. Darsda o'quvchiga nazariy va amaliy bilimlar bilan birga, savol qo'yishni o'rni beqiyosdir. Savolni to'g'ri qo'yish va uni tanlashda o'quvchi yoshini, ularning fikrlash darajasiga qarab tanlash kerak. Savol qanchalik hayot bilan bog'lansa o'quvchida shu fanga qiziqish ortadi va qiziqishi orqali fanni o'zlashtirishi osonlashadi. Savollar bo'yicha o'quvchida tasavvur hosil bo'lishi uchun yordamchi sifatida rasmlar qo'yilsa, o'quvchini o'ziga jalb qilib, fikrlash qobiliyati kengayadi. Buyuk bobokolonlarimiz haqida, ular yaratgan asarlari haqida savollar keltirilsa, o'quvchi savolni javobini izlab topish jarayonida, ular haqida qo'shimcha ma'lumotlarga ega bo'lishadi, ularning fanga qo'shgan hissalari bilan tanishishadi. Bu esa o'quvchida buyuk bobolarimizga nisbatan mehrni uyg'otish bilan birga, fahrlanish hissini ham uyg'otadi. Quidagi har sohadan bir shingil savollari xam o'quvchini fikrlashga va mavzuni osonroq o'zlashtirishga yordam deradi.

Har sohadan bir shingil



3. Mineral dorilar
haqida fikr
yuritgan
"Minrologiya"
asari muallifi
buyuk o'zbek
allomasi kim?



Kundalik maishiy soha bo'yicha xam beriladigan savollar ham o'quvchida qiziqishini, fikrlash qibiliyatini oshirib, o'quvchini izlanishga chorlaydi. Yana savollarni astronomiya, biologiya,



geografiya fanlari bilan bog'langan holda berilsa va sayyoralar, tabiyat va shaxarlar rasmi keltirilsa bu ham o'quvchida atrofdagi olamga qiziqishini uyg'otadi va tabiyatga mehri ortadi va atrofdagi olam kimyodan iboratligini tushunib yetadi. Bunday savollardan quyida bir nechta misollarni keltirish mumkin:

Har sohadan bir shingil



10.Qaysi
o'simlik
yodga boy
bo'ladi?



Har sohadan bir shingil



11.Amerika
qit'asi nomini
olgan element
qaysi element?



Har sohadan bir shingil



9.Sabzavot
pishirilganda unga
nima qo'shilsa C
vitamini saqlanib
qoladi?



Har sohadan bir shingil




6.To'qqizinchi
sayyoraning
nomi bilan
ataluvchi
element qaysi
element?



Har sohadan bir shingil





11.Qaysi
gazga
quyosh gazi
deyiladi?



Har sohadan bir shingil


3.Chumolini yo'gotish
uchun ularning iniga
nima sepish kerak?





Kimyoda savolning rivojlantiruvchi ahamiyati yuqori bo'lib, u o'quvchilarning kimyoviy bilimlarini shakillantiradi va rivojlantiradi, bilimdagи formalizmni yo'qotadi, mustaqil fikrlashga o'rgatadi. Kimyoda savol jarayonida muammoli o'qitishni amalga oshirish mumkin. Kimyoga doir nazariy va amaliy materiyalni puhta bilib olmoq uchun kimyoning barcha bo'limlariga taalluqli sa-vollarni yecha oladigan bo'lish nihoyatda zarurdir. Savollarni javobini topa olish mакtab o'quvchilarining ko'pgina kimyoviy prosseslar va qonuniyatlarini chuqr o'r ganishlari va tushinib olishlariga imkon beradi. Kimyodan savolning ta'limiyl ahamiyati shundan iboratki, o'quvchilar savolga javob topish jarayonida modda va jarayonlar to'g'risidagi kimyoviy bilimlari mustahkamlanadi.





Ona diyorimiz – O'zbekiston mustaqillikka erishib, kun sayin barcha sohalarda juda tez sur'atlarda dunyoning rivojlangan mamlakatlariga bo'yashib bormoqda. Ayniqsa yurtimizning kelajagi bo'lgan yoshlarga doir, ularning ta'limu-tarbiyasi doir islohotlar o'z samarasini bermoqda. O'zbekiston Respublikasida ta'lim-tarbiya tizimini zamonaviy talablar darajasiga ko'tarish va ta'limning uzlusizligini ta'minlashning asosiy maqsadlari va shart sharoitlari belgilab berildi. Uzluksiz ta'lim tizimini yanada takomillashtirish, sifatli ta'lim xizmatlari imkoniyatlarini oshirish, mehnat bozorining zamonaviy ehtiyojlariga mos yuqori malakali kadrlar tayyorlash, hamda o'rta ta'lim sifatini tubdan oshirish hozirgi kunda ta'lim sohasining asosiy vazifalaridan biridir. Ayni vaqtida fanni o'qitishda holisona yondashib, darslar tashkil qilinsagina o'quvchilar olgan bilimlarini hayotda qiyalmay qo'llay oladilar va o'z o'rinalarini topa oladilar.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Asqarov I.R., To'xtaboyev N.X., G'ofurov K.G. 7-sinf uchun darslik.
2. Asqarov I.R., To'xtaboyev N.X., G'ofurov K.G. 8-sinf uchun darslik.
3. Asqarov I.R., To'xtaboyev N.X., G'ofurov K.G. 9-sinf uchun darslik.



1945-1960 YILLARDA JANUBIY KOREYANING BIRINCHI PRIZDENTI LI SAN MAN DAVRIDA IQTISODIY-SIYOSIY JARAYONLAR VA UNING NATIJALARI

*Abduzohirov Ravshan Hamdamovich,
Mirzo Ulug`bek nomidagi O`zbekiston
Milliy Universiteti Tarix fakulteti*

*"Antropologiya va etnologiya" kafedrasi o`qituvchisi.
Email: ravshan_abduzohirov93@mail.ru*

Xudoyberdiyev Rashid

*Mirzo Ulug`bek nomidagi O`zbekiston
Milliy Universiteti Tarix fakulteti*

2-bosqich magistranti

Telefon: +998900040794

Annotasiya: Mazkur maqlolada Janubiy Koreya davlatida mamlakatning birinchi prezidenti Li Sin Man hukmronligi davri (1948-1960) avtoritarizm iqtisodiy holatning yanada yomonlashishi, umumiyyat korrupsiya va demokratik erkinlik ning poymol bo`lishi, uning davrida qarama-qarshiliklar yoritilgan.

Kalit so`zlar: Fuqorolar urushi, birinchi respublika, Li Sin Man, avtoritarizm, gegimon, "Kyonxyan simun", ikki palatali parlament, konstitutsiyaviy o`zgarishlar, Sinmindan, Chayudan

Ikkkinchi jahon urushi tugagandan so`ng, 1950-yilning oktabrida 38-parallel chizig`i ostida yana ikki davlat ya`ni koreys davlatlari vujudga keldi. Bular KXDR va Junubiy Koreya Respublikalaridir. Bu davlatning bo`linishiga sabab esa 1948-1949 yillarda chet qo'shinini chiqarishda fuqorolar urushining boshlanishi va bunday vaziyatda BMT ning jim turishi va ikki gegmon davlatlar SSR va AQSH ning aralashuvi buning natijasida janub va shimol bir-birlarini aybladilar. Shimolni SSR, janubni esa AQSH qo'llab quvvatlardilar buning natijasida ikki xil yo`nalishdagi davlatlar vujudga keldi. 1950-yil 25-iyunda Shimoliy Koreya qo'shninari Junubiy Koreyaga bostirib kirib, Koreya urushi boshlandi. Qo'shma Shtatlar boshchiligidagi 16 kishilik koalisiya BMT qo'mondonligi soyaboni ostida AQSH birinchi jamoaviy harakatni amalga oshirdi. Tebranib turgan jangovar chiziqlar ko'plab fuqarolarning qurbon bo`lishiga va juda katta vayronagarchiliklarga olib keldi.

1951-yil iyulda boshlangan sulk muzokaralari nihoyat 1953-yil 27-iyulda *Panmunjomda*, hozirda quroslanzantirilgan zonada (KXDR) yakunlandi. Sulh shartnomasi Shimoliy Koreya armiyasi, Xitoy Xalq ko'ngillilari va AQSh boshchiligidagi va Junubiy Koreyaning qo'llab-quvvatlagan Birlashgan Millatlar Tashkiloti qo'mondonligi tomonidan imzolandi. Hozirgacha tinchlik shartnomasi imzolanmagan. Sulh bitimidan so`ng Junubiy Koreya hukumati 1953 yil 15 avgustda ramziy sanada Seulga qaytib keldi.

Koreya Respublikasiga 1948-yil 15-avgustda asos solingenan. Li Sin Man esa Koreya Respublikasining birinchi prezindeti etib tayinlanadi, ayni shu yilning 9-sentabrida Kim Ir Sen boshchiligidagi Koreya Xalq Demokratik Respublikasi (KXDR) tashkil topadi. 1948-yil Koreya Respublikasining birinchi konstitutsiyasi ham qabul qilinadi.

Birinchi Respublika boshqaruvi davri BMT, Xitoy va SSRning qurolli kuchlarining faol ishtiropi bilan bo`lgan Shimoliy va Junubiy Koreya urushi bilan ta`riflanadi. Bu urush natijasida ikkala koreys davlati ham katta moddiy va iqtisodiy talafot ko`radi. Birinchi respublika 1960-yili aprel inqilobidan so`ng tugatiladi.

Li Sin Man boshqaruvi ko`pgina qarama-qarshilar, namoyishlar ostida o`tdi, chunki u o`zining qo'l ostidagi hukumatga ham ishonmas edi. Masalan u 1951 yil 11- fevralda "**kommunistik partizanlik**" shubhasi ostida 500 dan ortiq aholi o`ldirilgan. 1952-yilning mayida esa Li Sin Manning buyrug'i bilan parlamentning muxolifatdagi 50dan ortiq a'zosi aslida mavjud bo`lmagan "**xalqaro kommunistik partiya**" tomonidan molivaviy yordam olganlikda gumon qilinib qamoqqa olindi. 1958-yilning yanvarida muxolifatdagi taraqqiyot (*Chinboden*) partiyasi rahbarlari qamoqqa olindi, partianing o'zi yopildi, 30 iyulda esa uning boshlig'i Cho Bo Nam qamaldi[1].

1959-yil aprelda "*Kyonxyan sinmun*" muxolif gazetasi yopildi. Jamiyatda norozilik kuchayadi. Prezidentlik saylovlarining qalbakilashtirilishi 1960-yil 15-martda *Masana shahrida*



namoyishlarga olib keladi. So'ngra noroziliklar poytaxtga ko'chadi. Uning yuqori cho'qqisi 1960-yil 19-apreldagi chiqishlar bo'lib, Seul ko'chalariga 100 mingdan ortiq kishi, birinchi navbatda, talabalar chiqadi va bu namoyish Li Sin Manning iste'fo berib, AQShga qochib ketishiga olib kelgan[3]. Li Sin Manning davlat boshqaruvida iqtisodiy barqarorlikni taminlab bo'lmadi, uning davrida hattoki KXDRning iqtisodiyoti yuqori edi. Lekin Li Sin Manning davrida eng katta iqtisodiy yutuq bu 1945–1950 yillar davomida Qo'shma Shtatlar va Janubiy Koreya ma'murlari xususiy mulk institutini saqlab qolgan yer islohotini o'tkazdilar. Ular Yaponiya mustamlakachilik hukumati, yapon kompaniyalari va ayrim yapon mustamlakachilariga tegishli bo'lgan barcha yerlarni musodara qildilar va qayta taqsimladilar. Janubiy Koreya hukumati islohotni amalgalashirdi, unga ko'ra yirik yer egaligiga ega bo'lgan janubiy koreyaliklar o'z yerlarining katta qismini ajratishga majbur bo'lishdi. Mustaqil, oilaviy mulkdorlarning yangi sinfi yaratildi. Ortiqcha yerlar bo'lib berilib xususiy mulkchilik shakllandi[2]. Tashqi siyosatda AQSH, Yaponiya iqtisodiy-siyosiy so'zini aytuvchi davlatlar bo'ldi. Bu esa Janubiy Koreya davlatining tashqi iqtisodiy-siyosiy qaramligini oshirib borar edi. Bu esa birinchi respublikaning qulashiga olib keldi. Xulosa qilib, jahon siyotsatini gegimonlari AQSH, SSSR, Yaponiya davlatlari o'rtaсидаги siyosiy o'yinlar qurboni Koreya davlati bo'ldi. Bu esa yana bir bor bo'lingan dunyoni bo'lib olish edi. Bu tarixda "bo'lib tashla hukmronlik qil" siyosatiga xos jihatdir. Buning natijasida tub bir millatni tamoman ikki xil ko'rinish kasb etibshiga, qarama-qarshiliklar, iqtisodiy tushkunlar, fuqorolar urushiga, koreys xalqini achinarli holatga kelib qolishiga sabab bo'ldi.

Foydalilanigan adabiyotlar ro`yxati

1. Valeriy Khan."History of Korea" SEUL 2013.page110.
2. <http://www.brookings.edu/techinnovation>
3. Lee-Jay Cho and Yoon Hyung Kim "Economic Development in the Republic of Korea A Police Perspective" Amerika 1991. Pege 3-15.

**"ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ТАДҚИҚОТЛАР"
МАВЗУСИДАГИ РЕСПУБЛИКА 22-КЎП ТАРМОҚЛИ
ИЛМИЙ МАСОФАВИЙ ОНЛАЙН КОНФЕРЕНЦИЯ
МАТЕРИАЛЛАРИ**

(3-қисм)

Масъул мухаррир: Файзиев Шоҳруд Фармонович
Мусаҳҳих: Файзиев Фарруҳ Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиши муддати: 30.11.2020

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000